



SIYOSIY MODERNIZATSIYA JAMIYAT SIYOSIY

TIZIMINING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.

Samarqand viloyati Urgut tumani hokimining
o'rribosari Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i
Nuriddinova Gulshoda O'lmasqulovna

Annotasiya: O'zbekiston Respublikasi jamiyat siyosiy-ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini yangilash va zamonaviylashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega davlat hisoblanadi. Bugungi kunda, mamlakatimizda izchillik bilan demokratik islohotlarni va unga monand ravishda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini chuqurlashtirish chora-tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda. Zero, davr talablaridan kelib chiqib yangilanish va modernizatsiya jarayonlarini sobit qadamlik bilan davom ettirgan jamiyatgina barqaror taraqqiyotga erisha oladi.

Аннотация: Республика Узбекистан – страна с широкими возможностями обновления и модернизации всех сторон политической и социальной жизни общества. Сегодня в нашей стране реализуются меры по углублению демократических реформ и процессов формирования гражданского общества. Ведь только общество, продолжающее процессы обновления и модернизации уверенным шагом, исходя из требований времени, может достичь устойчивого развития.

Annotation: The Republic of Uzbekistan is a country with broad opportunities for renewal and modernization of all aspects of the political and social life of society. Today, our country is implementing measures to deepen democratic reforms and the formation of civil society. After all, only a society that continues the processes of renewal and modernization with a confident step, based on the requirements of the time, can achieve sustainable development.

Kalit so'zlar: siyosiy modernizatsiya, modernizatsiya, ijtimoiy integratsiya, siyosiy barqarorlik, "Millatlar dunyosi", totalitarizm va aftoritarizmdan demokratiyaga, "sivilizatsiyalashgan jamiyat", fuqarolik jamiyati, siyosiy institutlar.

Ключевые слова: политическая модернизация, модернизация, социальная интеграция, политическая стабильность, «Мир Наций», от тоталитаризма и



авторитаризма к демократии, «цивилизованное общество», гражданское общество, политические институты.

Key words: political modernization, modernization, social integration, political stability, “World of Nations”, from totalitarianism and authoritarianism to democracy, “civilized society”, civil society, political institutions. **Key words:** political modernization, modernization, social integration, political stability, “World of Nations”, from totalitarianism and authoritarianism to democracy, “civilized society”, civil society, political institutions.

Dunyoda ro'y berayotgan tendensiyalar shundan dalolat beradiki aynan o'z jamiyatida yangilanishlar va modernizatsiya jarayonlarini evolyusion tarzda amalga oshira olgan mamlakatlarda siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va fan-texnologiya sohalarida intensiv taraqqiyot yuksaladi. Bu o'rinda ta'kidlash joizki zamonaviy jamiyatda modernizatsiya jarayonlarining nazariy asoslarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ham aynan dunyo mamlakatlari oldida turgan ustuvor muammolarni hal etish, zamon ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilash maqsadlari zaminida ro'y beradi va taraqqiyotga yuz tutadi.

Etimologik jihatdan modernizatsiya atamasiga to'xtalib o'tsak, o'rta asrlardagi lotincha, modo (hozirning o'zida, hozirgi vaqtda, endilikda kabi ma'nolarni anglatadi), so'zidan kelib chiqqan bo'lib, keyinchalik undan modern, modernizer so'zлari kelib chiqdi. Modern (fransuzcha moderne) yangi, zamonaviy degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, ushbu so'zdan kelib chiqqan modernize (fransuzcha - moderniser) so'zi takomillashtirish, yangilash, zamonaviy talablardan kelib chiqib o'zgartirish kabi ma'nolarni ham anglatadi. XX asr o'rtalariga kelib esa keng ma'nodagi “sivilizatsiyalashgan jamiyat” ma'nosini anglatuvchi modernity tushunchasi bilan izohlandi.

Jumladan, modernizatsiya haqidagi dastlabki konseptual g'oyalar XX asrning 50-60 yillariga kelib ancha mufassal darajada shakllanganligi manbalar orqali tanishmiz. Unga ko'ra modernizatsiya haqidagi nazariyalar o'z taraqqiyotida dastlab, 1950-1960, 1960-1970, 1980-1990 yillardan iborat uch muhim bosqichlardan iboratdir.

Xususan, XIX va XX asr boshlarida faoliyat yuritgan g'arb olimlaridan M.Veber, F.Tennis, E.Dyurkgeym kabi oimlarning g'oyalari modernizatsiya nazariyasining



rivojlanishi uchun muhim turtki bo'lib xizmat qildi. Ularning siyosiy modernizatsiya haqidagi qarashlar rivojida G.Almond va D.Pauellning 1966 yilda nashr etilgan "Qiyosiy politologiya, Taraqqiyot konsepsiysi nuqtai nazaridan yondashuv" asari, D.Apterning 1965 yilda nashr etilgan "Modernizatsiya siyosati" nomli asari, S.Lipsedning 1960 yilda nashr etilgan "Siyosiy odam", L.Payning 1966-yilda nashr bo'lган "Siyosiy taraqqiyot aspektlari, tahliliy tadqiqot" nomli asari, D.Rastouning 1967 yilda nashr etilgan "Millatlar dunyosi" nomli asari, SH.Eyzenshtadtning 1966 yilda nashr etilgan "Modernizatsiyalashuv: norozilik va o'zgarishlar" nomli asari, S.Xantingtonning 1968-yilda nashr bo'lган "O'zgarayotgan jamiyatlardagi siyosiy tartibot" nomli asarlari muhim ahamiyatga egadir.

Modernizatsiyaning ilk nazariyalari rivojida universalizmga asoslangan metodologik yondashuvar ustuvorlik qilgan bo'lib, uning mazmuniga ko'ra dunyodagi barcha xalqlarning taraqqiyoti bir xil yo'nalishda ro'y beradi, universal bosqichlarni bosib o'tadi va bunda bir-biriga o'xshash, mantiqan yaqin bo'lган qonuniyatlar amal qiladi deb hisoblandi. Ushbu qonuniyatlar orqali modernizatsiya jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'lган va bu ketma-ketlikni R.T.Muxayevning "Politologiya" asari orqali ko'rib o'tamiz:

- Oddiy sotsial strukturadan murakkab tizimga o'tiladi;
- Ijtimoiy integratsiyalashuv iqtisodiy mohiyat kasb etadi;
- Etatizmdan bozor munosabatlariga o'tish ro'y beradi;
- Inson tabiatning bir bo'lagi ekanligi holatidan ijodkor – kashfiyotchi holatiga o'tadi;
- Odamlar ongida plyuralistik qarashlar ro'y beradi;
- Totalitarizm va aftoritarizmdan demokratiyaga o'tish ro'y beradi."¹

Dunyo siyosiy modernizatsiya hodisasining yirik tahlilchi nazariyotchilaridan biri SH.Eyzenshtadt modernizatsiya hodisasining o'ziga xos xususiyatini keng ta'riflagan bo'lib, "Modernizatsiya bu an'anaviy agrar jamiyatdan zamonaviy industrial va undan keyin postindustrial jamiyatga o'tishdir" deb izoh berib o'tgan. Shuningdek, u o'zining g'oyalarida ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya turlarining quyidagi jihatlarini qayd etib o'tgan edi.

- Industriallashuv davrigacha bo'lган modernizatsiyalashuv;

¹ Мухаев Р.Т. Политология. -М.: Проспект, 2011, -С. 492.



- Dastlabki industriallashuv davridagi modernizatsiyalashuv;
- Keyingi davrlardagi industriallashuvga xos modernizatsiya;
- Postindustrialashuv davridagi modernizatsiya.²

Dunyo olimlari tomonidan modernizatsiya paradigmasiga oid turli xil nazariy metodologik modellar ham taklif qilingan va bu haqida keng ijtimoiy-nazariy g'oyalar bildirilgan. Jumladan, "U.Rostou, A.Organskiy, D.Lerner, S.Blek kabi mutaxasisilar tomonidan modernizatsiya jarayonlarining mazmunini izohlash uchun "linear (yagona yo'nalishdagi model" g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra modernizatsiyaga nisbatan orqaga qaytmas va progressiv hodisa sifatida yondashiladi. Mazkur model mohiyatiga ko'ra modernizatsiya tushunchasi inson ongi va xulq-atvorining barcha jihatlarida o'zgarishlarga sabab bo'ladigan omildir.

Navbatda biz modernizatsiya hodisasi tarkibida siyosiy modernizatsiyaning alohida o'rni va uning o'z mohiyatiga ko'ra siyosiy modernizatsiyaga asoslangan jamiyatda zamonaviy siyosiy institutlar va siyosiy amaliyotni shuningdek, zamonaviy siyosiy tizimni shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ham izohlab o'tamiz.

Siyosiy modernizatsiya jamiyat siyosiy tizimining zamon talablari va ehtiyojlaridan kelib chiquvchi vaziyatga nisbatan layoqatini yuksalishi va davr muddaosiga moslashuvini ham anglatadi. Ayni paytda siyosiy modernizatsiya davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni zamonaviylashtirish, demokratik asoslarini kuchaytirish va fuqarolik jamiyati rivoji uchun maqbul siyosiy mexanizmlarni vujudga keltirish maqsadlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Siyosiy modernizatsiyaning XX asr ikkinchi yarmiga kelib shakllangan konservativ va liberal yo'nalishlari, ular o'rtasidagi ayrim farqlarga qaramasdan, siyosiy modernizatsiya zamirida siyosiy barqarorlik va jamiyatning izchil demokratlashuv holati yotishini e'tirof qilib o'tganlar.

Siyosiy modernizatsiya haqida S.Xantington qarashlarida shunday fikr ilgari surilgan, "Siyosiy modernizatsiya jamiyat siyosiy institutlarining, jamiyatdagi ijtimoiy tafakkurning demokratlashuvidan iboratdir deb hisoblaydi. Shuningdek, mamlakat hayotining boshqa sohalarida, masalan, ijtimoiy, iqtisodiy, fan, madaniyat, ta'lim yo'nalishlarida bo'ladigan

² Eisenstadt S.N. Modernization: Protest and Change. -Englewood Cliffs. – N.Y., 1966. -P.1.



modernizatsiya jarayonlari ham oxir oqibatda jamiyat demokratlashuviga olib keladi. Umumiyluxulosa o'rnida, siyosiy modernizatsiya jarayonida, siyosiy barqarorlik vaziyatining nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lishini e'tirof qilib o'tadi. Bu esa, siyosiy barqarorlikni saqlab qolish jamiyatda iqtisodiy taraqqiyot sur'atiga, daromadlarning adolatli taqsimlanishiga siyosiy imkoniyatlar zahirasining mavjudligiga, siyosiy partiyalar faoliyati samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi"³, - deb ta'rif beradi.

R.Dal, G.Almond kabi olimlar ham siyosiy modernizatsiya mohiyatini ochiq demokratik siyosiy tizimning shakllanishidan iborat jarayon sifatida talqin qilganlar va bu jarayonda aholi siyosiy ishtirokining faolligining yuksalishi siyosiy modernizatsyaning taraqqiyot asosini tashkil qiladi, deb hisoblaganlar.

Zamonaviy jamiyatda siyosiy institutlar jamiyatning barkarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega holda hisoblanadi. Bu institutlar, ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, qonunlar va qonunchilikni amalga oshirish, va fuqarolar va hokimiyyat organlari orasidagi munosabatlarni o'rnatishda katta ro'li bor.

Siyosiy institutlarning urni ijtimoiy falsafa asosida taxlil qilinadi. Bu, jamoatning harakat va o'sish jarayonida siyosiy sistemning ahamiyatini va o'rnini tushuntiradi. O'sha tikishlar fasllarining barchasi tarixiy va falsafiy asosida o'rganiladi.

Siyosiy institutlarning maqsadi jamiyatning umumiy maslahatlarini himoya qilish, hukmronlikni rivojlantirish, erkinlik va huquqni ta'minlash, insoniyat ruhiyatini qo'llab-quvvatlash, va adolatni amalga oshirishdir.

Siyosiy institutlarning asosiy vazifalari quyidagilardir:

1. Qonun va qonunlar jarayonini amalga oshirish: Siyosiy institutlar, jamiyatda yashayotgan insonlarni, ularga berilgan huquq va erkinliklarni amalga oshirish uchun qonun va qonunlar jarayonidagi ishlarni bajarishdan mas'uldir.

2. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish: Siyosiy institutlar, hokimiyyat organlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va adolatni ta'minlashda muhim rol o'yashlari lozim.

³ Хантингтон С. Будущее демократического процесса: от экспансии к консолидации // МЭиМО, 1995. № 6. -С. 90.



3. Hukmronlikni rivojlantirish: Siyosiy institutlar, hokimiyatni amalga oshirish va uni rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Bu, davlat tuzumini amalga oshirish, demokratik tizimni barpo etish, va hukmronlik organlarining faoliyatini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

4. Huquq va erkinlikni ta'minlash: Siyosiy institutlar, fuqarolarga huquq va erkinliklarni ta'minlash uchun qonunlarni yaratish, modifikatsiya qilish va ularni muhofaza qilish bilan shug'ullanadi.

5. Adolatni amalga oshirish: Siyosiy institutlar, qonunchilik prinsiplariga asoslangan adolat tizimini amalga oshirish, qonunlarga rioya qilish va jaza jarayonini boshqarishga doir vazifalarini o'z ichiga oladi.

Aniq bilan aytish mumkinki, siyosiy institutlar zamonaviy jamiyatning muhim qismidir, ular jamiyatning barkarorligini ta'minlashda zimmasi yuqori vazifalarni amalga oshirishlari lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. X.E.Boboqulova. MILLIY FALSAFANING YOSH AVLOD TARBIYASIDA IJTIMOIY AHAMIYATI. International conference "History, cultural heritage and tourism opportunities of the Silk Road peoples (past and present)". "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage (Samarkand, 2023,10-12 May) UO4K 94(4/5) (082) KBK 65.433ya43 M24

2. Eisenstadt S.N. Modernization: Protest and Change. -Englewood Cliffs. – N.Y., 1966. -P.

3. Мухаев Р.Т. Политология. -М.: Проспект, 2011, -С. 492.

4. Хантингтон С. Будущее демократического процесса: от экспансии к консолидации // МЭиМО, 1995. № 6. -С. 90.